

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari

YANGI

O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 248 (1309), 2024-yil 6-dekabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZARO MULOQOT VA ALMASHINUVLAR FAOLLASHGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedov 5-dekabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotda O‘zbekiston – Turkmaniston strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalarini atroficha muhokama qildilar.

Turkman xalqining milliy yetakchisi davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ilgari erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi va bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik masalalari tomonlarning e‘tibor markazida bo‘ldi.

O‘zaro muloqot va almashinuvlar sezilarli faollashgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan oyda Turkmanistonda Hududlar forumi, sanoat ko‘rgazmasi va O‘zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bundan tashqari, Ashxobod shahrida atqoli muftafakkir va shoir Maxtumquli Firog‘iy asarlarining o‘zbek tilidagi to‘plami taqdimoti hamda unga bag‘ishlab birgalikda suratga olingan badiiy film namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Yil boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Yuk tashishlar, shu jumladan, Turkmanboshi porti orqali ko‘paymoqda. “Shovot — Toshovuz” chegaraoldi zonasi qurilishi davom etmoqda. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va boshqa yo‘nalishlarda kooperatsiya kengaymoqda.

Energetika va suvdan foydalanish sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari muhokama qilindi.

Joriy xalqaro vaziyat va mintaqaviy kun tartibi yuzasidan ham fikr almashildi.

Suhbat chog‘ida davlatimiz rahbari Turkmaniston yetakchisini yaqinlashib kelayotgan bayram — Betaraflik kuni bilan samimiy tabriklab, birodar turkman xalqiga farovonlik va ravnaq tiladi.

O‘ZA

8-DEKABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

14-MODDA

Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta‘minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi



AVTOMOBIL SANOATI MAHALLIY ISHLAB CHIQRUVCHILAR UCHUN RAQOBAT MAYDONI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-dekabr kuni avtomobil sanoatida 2025-yil uchun ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Bu masala o‘tgan oyda muhokama qilingan, mutasaddirlarga rejalarni tanqidiy ko‘rib chiqish topshirilgan edi. Bu galgi taqdimotda Prezident ko‘rsatmalarini asosida takomillashtirilgan chora-tadbirlar bayon qilindi.

Avvalo, ishlab chiqarish hajmi va sifatiga e‘tibor qaratiladi. Hozir yiliga 400 mingdan ziyod avtomobil sotilyapti. Aholi jon boshiga daromad oshayotgani bois, bu tendensiya keyingi yillarda ham saqlanib qoladi. Bundan foydalanib, talabga yarasha mahsulot ishlab chiqariladi.

Qolaversa, O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi kutilmoqda. U holda bozorda mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobat yanada kuchayadi. Shuning uchun sifat ustida ishlash, mahalliyashtirish darajasini oshirish zarurligi ta‘kidlandi.

Xususan, 2025-yilda “BYD” avtomobillarining 60 ta detalini mahalliyashtirish hisobiga elektromobil tannarxini pasaytirish

mumkin. Ushbu kompaniya rahbariyati ham yurtimizdagi tarmoq korxonalarini salohiyatini yuqori baholagan. Shu bois, Mahalliyashtirishga ko‘maklashish markazi imkoniyatlarini ishga solib, hududiy korxonalar bilan kooperatsiya hajmini 2 karra oshirish vazifasi qo‘yildi.

Yana bir muhim masala — eksport. So‘nggi yillarda qo‘shni davlatlarda ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgani natijasida 40 mingdan ortiq avtokomplekt sotilgan. Kelgusi yil eksportni 700 million dollardan oshirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, Samarqanddagi avtobus va yuk transporti korxonalarini ham tashqi bozorlarga olib chiqish kerakligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Davlatimiz rahbari tarmoqning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga alohida to‘xtaldi. Zamon talablariga moslashib, ishlab chiqarishni barqaror qilish, marketing va sifat bo‘yicha har kuni izlanish zarurligi ta‘kidlandi.

O‘ZA

YANGI O‘ZBEKISTONNING XALQPORVAR HUQUQIY POYDEVORI

“Hamma xalqlar uchun yozilgan konstitutsiya hech bir xalqqa mos kelmaydi”, deb yozgan ekan XVIII-XIX asrlarda yashab o‘tgan fransuz siyosatchisi, faylasuf Jozef de Mestr. Ushbu fikr qaysidir ma‘noda har bir millatning o‘ziga xos tarixi, madaniyati hamda qadriyatlar borligini va u o‘z kelajagini ana shu milliy o‘zlikdan kelib chiqib qurishga haqli ekanini tasdiqlaydi. Dunyoda turli murakkab geosiyosiy jarayonlar kechayotgan bir paytda biz ham 2023-yilda Konstitutsiyamizga yangi mazmun bag‘ishlab, zamon talablariga javob beradigan hujjat yaratdik.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi arafasida asosiy qonunimiz ahamiyati haqida fikr yuritish, ayniqsa, muhim. Zero, Konstitutsiya faqatgina yuridik hujjat emas, balki xalqimizning umumiy maqsadlarini belgilab, ertangi kunga ishonchini mustahkamlaydigan poydevor hamdir.

Yangi O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga endi bir yarim yildan oshdi. Esingizda bo‘lsa, davlatimiz rahbari 2023-yil 8-mayda Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqotida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani qabul qilish bo‘yicha

30-aprelda bo‘lib o‘tgan referendum yakunlari haqida gapirar ekan, jumladan, bunday degan edi: “Konstitutsiyamiz loyihasini muhokama qilishdan boshlab to uni qabul qilguncha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan umumxalq muhokamalarida millionlab yurtdoshlarimiz faol ishtirok etdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangilangan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi xalqimiz bo‘ldi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Eng muhimi, endi ishlohtalarimiz yo‘lidan hech qachon ortga qaytmaymiz, “inson — jamiyat — davlat”, degan yangi tizim asosida faqat va faqat oldinga qarab boramiz”.

▶ Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON – IJTIMOY DAVLAT

Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil – SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOYIY va DUNYOVIY davlat maqsadlarining to‘rtinchi tahlili



“Odamlar ertaga yoki uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashashni istaydi”. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining ilk davrlarida ilgari surgan ushbu g‘oya zamirida xalqimiz hur, erkin, farovon hayot kechirishi, farzandalarimiz hech kimdan kam bo‘lmay, har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, jamiyatimizda tenglik va adolat tamoyillari barqaror bo‘lishiga erishishdek ulkan maqsadlar o‘z aksini topgan.

Hakim YO‘LDOSHEV o‘lgan suratlar.

O‘tgan yillarda ushbu g‘oya va maqsadlarni ro‘yobga chiqarish, adolati jamiyat, xalqparvar davlat barpo etish, inson qadriini yuksaltirish borasida keng qamrovli ishlar qilindi. Xususan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan o‘zgarishlar jarayonida ijtimoiy davlat modeli tushunchasi ilgari surildi.

Prezidentimiz ushbu tushunchani izohlar ekan, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir”, deya ta‘kidlagan.

Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda ushbu tamoyil mustahkamlanishi natijasida inson qadriini ulug‘lash, huquq va manfaatlarini himoyalashga yo‘naltirilgan ishlar ko‘lami yanada kengaymoqda. Yurtimizda keyingi yillarda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish,

davlat tomonidan fuqarolarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish ko‘lami va turlarini kengaytirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish xarajatlari sezilarli oshib, kam ta‘minlangan nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko‘paydi. Nogironligi bo‘lgan shaxslar va bolalarning parvarishi bilan band bo‘lganlar uchun yangi nafaqa turlari joriy etildi.

2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish bo‘yicha farmon qabul qilinib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilishi bu jabhadagi ishlar rivojiga xizmat qilmoqda. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” hamda mahallabay ishlash tizimi ijtimoiy yordamga muhtoj oilalar, ayollar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni kamaytirish, oilalarning daromadini oshirishda o‘z samarasini bermoqda.

Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlami uy-joy bilan ta‘minlash, ishsizlikni bartaraf etish, yoshlar va xotin-qizlarga zamonaviy kasblarni o‘rgatish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar qilinayapti. Ushbu xayrli amallar “Avval — inson, keyin — jamiyat va davlat” ezu g‘oyasini ro‘yobga chiqarish, xalqimizni bugungi yashayotgan kunidan rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo‘lmoqda.

TAHRIRIYAT

IJTIMOY DAVLAT – INSONPARVAR DAVLAT DEMAKDIR

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga bu yil 32 yil to‘ladi.

Bu muddat asrlarni qaritgan tarix oldida juda qisqa fursat, albatta. Biroq uning mamlakat rivoji, aholi turmush farovonligini, huquqlarini ta‘minlashdagi o‘rnini hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi.

2023-yilda umumxalq referendumini asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilingan edi. O‘tgan qisqa vaqt mamlakat uchun muhim o‘zgarishlar davriga aylandi. Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yangilanishlarga asos bo‘lgan ushbu hujjat O‘zbekistonning demokratik islohotlardan aslo ortga qaytmasligini, qonun ustuvorligi va barqaror rivojlanishga mudom intilishini tasdiqlaydi.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida “O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”, degan

norma mustahkamlandi. Yangi kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, O‘zbekistonda huquqiy davlat tamoyili mustahkamlandi, endi barcha jarayonlar qonuniy asoslar ustiga quriladi, davlat xizmatchilaridan huquq doirasida fikrlash, barcha masalalarga huquqiy ko‘z bilan qarash talab etiladi. Qolaversa, huquqiy davlatda barcha fuqarolar qonun oldida teng bo‘ladi, davlat hokimiyatining oliy organlari ham qonunlarga bo‘ysunadi va qonunlarning muqarrar ijrosini ta‘minlaydi.

▶ Davomi 3-betda

Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-moddasi.

YANGI O'ZBEKISTONNING XALQPARVAR HUQUQIY POYDEVORI

Konstitutsiyada mehnat sohasida adolatli ish haqi, gender tenglik va ish joyida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik mustahkamlab qo'yildi. Bu, ayniqsa, ayollar va yoshlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, homiladorlik yoki bolali bo'lgani bois, ayollarni ishga qabul qilishdan bosh tortish yoki ularning maoshini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.



Tanzila NORBOYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Senati Raisi



Boshlanishi 1-betda

Ushbu yig'ilishda men ham ishtirok etgan edim. Shavkat Mirziyoyevning qat'iy aytgan ushbu so'zlari ko'plab qatorni meni ham hayajonga soldi. Zero, bu so'zlar zamirida kelajakka, xalqimizga, uning cheksiz buniyodkorlik salohiyatiga qat'iy ishonch mujassam edi.

Darhaqiqat, mamlakatimiz yangi O'zbekiston poydevorini mustahkamlaydigan qonunlar va institutlar tizimini yanada takomillashtirib, dunyoda munosib o'rin egallashga harakat qilmoqda. Bu jarayon yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topdi. Unda nafaqat mamlakatning uch ming yillik tarixi va madaniyati, balki zamonaviy dunyo konstitutsionalizmi asoslari ham to'liq aks etdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq va xalqaro me'yorlar asosida inson huquqlari hamda erkinliklari mutlaq ustuvorlikka ega bo'ldi. Fuqarolarning barcha zarur huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda himoya qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi.

Albatta, amaldagi Konstitutsiyaga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish referendumsiz ham Oliy Majlisning har ikki palatasi uchdan ikki qismi ovozi bilan amalga oshirilishi mumkin edi. Biroq Prezident milliy referendum o'tkazish taklifini ilgari surdi. Mamlakat aholisining ushbu jarayonga keng jalb etilishi davlatimiz rahbarining yurtimiz fuqarolariga, ularning fikr-mulohazalari va istaklariga alohida e'tibor bilan qarashini yana bir bor isbotladi. Millatimiz lideri aynan xalq bilan mulohatga ulkan va tub islohotlarni, jumladan, Konstitutsiyaga doir o'zgartishlarni amalga oshirishda kuch va jasorat beradigan quvvat va ilhom manbaini topdi.

"Qonun kuchli, ammo ehtiyoj undan ham kuchli", degan edi Iogann Volfgang Gyote. Shu nuqtayi nazaridan qaraganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning yaratilish tarixi mamlakatimiz uchun muhim voqeaga aylandi. Uning har bir moddasi xalq xohish-irodasini ifoda etdi va bu o'zgarishlar yurtimizda keng ko'lami islohotlarga yo'l ochadigan chinakam insonparvar siyosatning huquqiy bazasini mustahkamlash ehtiyojidan kelib chiqdi, desam, aslo mulohaza bo'lmaydi. Zero, Konstitutsiya muhokamalarida millionlab yurtdoshimiz ishtirok etdi, 222 ming 715 ta taklif kiritildi. Konstitutsiya loyihasidagi moddalar soni 128 tadan 155 tagacha oshirildi, normalar esa 275 tadan 434 taga yetkazildi. Bu jarayonda 2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendum hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Saylovchilarning 90,21 foizi yangi tahriri o'zlarining qo'llab-quvvatladilar.

Shu o'rinda Konstitutsiyaning adolatli va barqaror jamiyat qurishdagi ahamiyati qanday, degan haqli savol tug'ildi. Bu savolga javob berish osan emas. Chunki mukammal jamiyatni, "Fozil odamlar shahri"ni orzu qilish — irratsional utopiya mahsulidir. Vaholanki, dunyoda mukammal jamiyatning o'zi yo'q. Ammo insoniyatning eng qadimiy ehtiyojlaridan biri bo'lgan adolatli, barchaga teng huquq va imkoniyatlar yaratib beradigan, shu bilan birga, teng majburiyatlar yuklaydigan jamiyat qurishning imkoni ham, zarurati ham bor.

Konstitutsiya mana shu adolatni kafolatlaydi va ta'minlaydi. Buning uchun jamiyatning o'zi ham o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, uni istashi va qonunlarning haqiqiy mazmun-mohiyatini aslicha qabul qilishi kerak. Agar jamiyatning o'zi o'zgarishni istamasa, hech qanday natijaga erishib

bo'lmaydi. Davlatimiz rahbarining xalqimiz ruhiyati, ong-u tafakkuri zamon bilan hamnafas o'zgarishi kerakligini, bu esa, shak-shubhasiz, xalqimiz hayotini yaxshilashga xizmat qilishini bot-bot takrorlashida ham ayni shu haqiqatning in'ikosini ko'rish mumkin.



Darhaqiqat, bugun zamon o'zgarayapti. Bashariyat kelajagiga tahdidlar kuchaygan, turli mintaqalarda urush va o'zaro nafrat alanga olgan, nafaqat tamaddunlar, g'oyalar, balki xalqlar, elatlar, urug'lar o'rtasida adovat bo'y cho'zgan bir zamonada yashayapmiz. Ko'z o'ngimizda dunyoning geosiyosiy xaritasi qayta bichilyapti, biz yaqin yuz yilda ko'nikkan siyosat, falsafa, turli qonuniyati dunyoqarashlar poydevoriga darz ketayapti.

Men bularni nima uchun tilga o'lyapman? Chunki Konstitutsiya davlatni davlat, xalqni xalq, millatni millat qiladigan, davr tahdidlariga qarshi birlashtiradigan, taraqqiyot sari yetaklaydigan, yaratuvchanlikka ilhomlantiradigan qadriyatlarimizdan biridir. Zero, Konstitutsiyamiz quruq orzu-niyatlar yig'indisi, qog'ozdan real hayotga ko'chmagan utopik qarash emas, balki vatandoshlarimizning vatanga muhabbati, hayotbaxsh islohotlarga daxldorlik hissi, o'z taqdiri, kelajagiga munosabatini ham isloh etayotgan qudratini barchamiz bugungi hayotimiz misolida ko'rib, bilib turibmiz.

Hayotimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlar asnosida yana bir haqiqatni tan olish kerak. Tarixni shaxslar yaratadi. Shaxslar davlatning, xalqning u yoki bu burilish nuqtasida katta sahnaga chiqadi, uning taraqqiyoti uchun o'zida inqilobiy qarorlar qabul qilishga shijoat va jasorat topa oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalqimiz tarixini yangi — nurli o'zanga bura olgan ana shunday buyuk shaxs sifatida namoyon bo'ldi.

Yaqin tariximizni hali hech kim unutan emas. Bir eslang, qay ahvolda edik? Tashqi va ichki siyosatimiz, iqtisodiyotimiz, ma'naviyatimiz, ijtimoiy hayotimizda yig'ilib qolgan muammolar zudlik bilan hal etilishi kerak edi. Shunday og'ir vaziyatda Prezident Shavkat Mirziyoyevning xalqparvar, uzqoni ko'zlagan siyosati, oddiy odamlar dardu tashvishi bilan yashashi, g'ayrat-shijoati o'sha davr qolplariga sig'mayotganligi — uning atrofida qurilgan seviz turar, uning ilg'or tafakkuri ortidan qolmaslikka harakat qilg'lik.

Orzu-niyatlarga yetish uchun nafaqat mustahkam huquqiy, balki falsafiy va ma'naviy asos kerak edi. Bu yangi tahrirdagi Konstitutsiya timsolida namoyon bo'ldi. Xalqimiz uchun bu Konstitutsiya qandaydir mavhum tushuncha emas. Konstitutsiya — qonun. To'g'ri, u qaysidir ma'noda moddiy ham emas. Biroq Konstitutsiyada mustahkamlangan qoidalardan kelib chiqadigan oqibatlarni biz bugun o'z ko'zimiz bilan ko'ryapmiz, his qilyapmiz.

Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Konstitutsiyasini yangilash davr talabi ekanini takrorlar ekan, jamiyatga, xalqimizga yangi O'zbekiston g'oyasini singdira oldi, mamlakatimizning har bir fuqarosida ko'z o'ngimizda ro'y berayotgan olamshumul o'zgarishlarga daxldorlik hissi uyg'otdi. Bugungi buniyodkorlik, ham zohiriy, ham botiniy o'zgarishlar, yangicha tafakkur, yangicha a'mollar... "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan tamoyilning faoliyatimiz asosiga aylangan xalqimiz hayotini tubdan o'zgartirib yubordi.

Prezidentimiz ta'bir bilan aytganda, bular mamlakatimizda Uchinchi Rennessans davrini boshlab berdi, xalqimiz qonida mudrab yotgan buniyodkorlik, tadbirkorlik, ilmu ma'rifatga qadriyatlarimizdan biridir. Zero, Konstitutsiyamiz to'siq bo'layotgan illat-u kamchiliklarimizdan qutulishga intilyotganimiz, yuksak marralarni ko'zlayotganimiz jaded bobolarimiz orzu qilgan ma'vo edi.

Qolaversa, mana shu orzu-niyatlarga yetish uchun nafaqat mustahkam huquqiy, balki falsafiy va ma'naviy asos kerak edi. Bu yangi tahrirdagi

90 tasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlandi. Ekologik masalalarga alohida ahamiyat berilib, tabiatni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda Orolbo'yi mintaqasini tiklash bo'yicha davlat majburiyatlarini mustahkamlandi.

O'zbekistonning boy tarixi, ajdodlarimiz merosi va inson huquqlari haqidagi xalqaro standartlar Konstitutsiyamiz ma'naviy asoslarini boyitdi. Xalqimizning qadriyatlarini, jumladan, bag'rikenglik va adolat kabi fazilatlar asosiy qonunimiz mazmun-mohiyatiga singdirildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiya yangi tashqi siyosiy yo'nalishlarimizni ham aks ettirdi. Yangi O'zbekiston dunyo mamlakatlari bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash, global iqtisodiyotda faol ishtirok etish hamda barqaror rivojlanishga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Ta'lim sohasida adolatli qoidalar joriy etildi. Maktabgacha ta'limdan umumiy o'rta ta'limgacha bo'lgan bosqichlar bepul qilindi. Barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishni nazarda tutuvchi inklyuziv ta'lim ta'minlandi.

Sog'liqni saqlash sohasida davlat tibbiy yordami kafolatlagan holda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, epidemiyalarga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirishga katta



Shu o'rinda yana adolat va ehtiyoj haqidagi fikrni takrorlashga to'g'ri keladi. Odamlar yaxshi yashashni, o'z mehnatiga yarasha maosh olishni, haq-huquqlari himoyalanshini, qariganda munosib pensiya bilan ta'minlanishni istaydi. Adolat odamlarda kelajakka ishonchni mustahkamlaydi. Shu bois, yangi Konstitutsiyada adolat jamiyat va davlat munosabatlarning markaziy g'oyasi sifatida belgilandi. Inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi kafolatlandi. "Davlat — jamiyat — shaxs" paradigmasi "inson — jamiyat — davlat" tamoyiliga o'zgardi.

Konstitutsiyada inson huquqlariga e'tibor sezilarli darajada oshdi. Dunyo mamlakatlari qonunlarida belgilangan 110 dan ortiq huquqdan

e'tibor qaratdi. Bu nafaqat tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, balki ularni barcha uchun birdek qo'llashni nazarda tutadi.

Konstitutsiyada mehnat sohasida adolatli ish haqi, gender tenglik va ish joyida kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik mustahkamlab qo'yildi. Bu, ayniqsa, ayollar va yoshlarning mehnat huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, homiladorlik yoki bolali bo'lgani bois, ayollarni ishga qabul qilishdan bosh tortish yoki ularning maoshini kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

Asosiy qonunimizda ijtimoiy davlat tamoyili mustahkamlandi. Bu davlat aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, qashshoqlikni kamaytirish va tenglikni ta'minlash yo'lida faol harakat qiladi,

deganidir.

Shu bilan birga, Konstitutsiya yoshlar uchun ta'lim, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik sohasida yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Asosiy qonunda oilaviy kafolatlar, uy-joy huquqi va ijtimoiy himoya masalalari ham aks ettirildi.

Konstitutsiyamizning ahamiyati faqat qonunchilik bilan cheklanmaydi. U jamiyatning ma'naviy, madaniy va falsafiy tamoyillarini ham belgilaydi. Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

O'zbekiston ijtimoiy davlat etib belgilandi. Ehtiyojmand shaxslar uchun kuchli ijtimoiy himoya va g'amxo'rlik davlat siyosati yo'nalishining muhim qismiga aylandi.

O'zbekiston huquqiy davlat sifatida ta'riflandi. Inson huquqlari va erkinliklari konstitutsiyaviy darajada kafolatlandi.

Ta'lim olish huquqi kengaytirildi. O'qituvchilarga konstitutsiyaviy maqom berildi, fuqarolarning davlat granti hisobidan oliy ta'lim olish huquqi kafolatlandi.

Oilani to'liq rivojlantirish uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar yaratishni konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Hech qanday kamsitishlarsiz va eng kam ish haqidan kam bo'lmagan adolatli mehnat haqi olish huquqi kafolatlandi.

O'lim jazosi konstitutsiyaviy darajada taqiqlandi. Davlat ham insonni hayotidan mahrum qilish huquqiga ega emasligi ta'kidlandi.

O'zbekiston hududida qonuniy ravishda bo'lgan har bir shaxs uchun mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, istiqomat joyini tanlash huquqi mustahkamlandi.

Davlat fuqarolarning internet tarmog'idan foydalanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishi kafolatlandi.

Yoshlar huquqlari himoya qilinishi, jamiyat va davlat hayotida ularning faol ishtirokini rag'batlantirish mustahkamlandi.

Milliy raqobatbardosh iqtisodiyot, xususiylar tadbirkorlik va mulk huquqini himoya qilish konstitutsiyaviy kafolatga ega bo'ldi.

Davlat boshqaruvining samarali, yaxlit va xalqparvar tizimini mustahkamlash, parlamentarizmni rivojlantirish orqali aholining farovonligi va davlatning barqaror rivojlanishi ta'minlandi.

Qonunchilik palatasi va Senat vakolatlarini sezilarli darajada kengaytirildi.

Advokatlarining faoliyatini kafolatlarini mustahkamlash uchun Konstitutsiyaga advokatura institutiga bag'ishlangan alohida bo'lim kiritildi.

OAV va jurnalistlar faoliyatini himoya qilish va rag'batlantirish uchun konstitutsiyaviy kafolatlar ta'minlandi.

Nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini kafolatlarini belgilashga bag'ishlangan fuqarolik jamiyat institutlarini haqidagi alohida bo'lim Konstitutsiyaga kiritildi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqadigan maqsad va vazifalarni bajarish aholini qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish va byudjetdan katta mablag' ajratishni talab qiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiyot taraqqiyotini barqaror yuqori o'sish sur'atini ta'minlash, balki iqtisodiy tub o'zgarishlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Yangi O'zbekiston rivojlanish strategiyasida 2030-yilga borib, odam boshiga YIMni 1,6 barobar, daromadni esa 4 ming dollardan oshirish va "daromadli o'rta darajada" qatoridan joy olish maqsadlari belgilangan. O'zbekiston iqtisodiyoti 2023-yilda 6 foiz o'sib, YAIM salkam 90,8 milliard AQS dollarini tashkil etdi. Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot qiymati 2468 dollarga o'sdi.

Eksport o'sish sur'atini va Konstitutsiyada belgilangan vazifalarni inobatga olgan holda, 2026-yilga borib, O'zbekiston eksportini 40 milliard dollarga, 2030-yilga borib esa 80 milliard dollarga yetkazish mumkin. Bu ijtimoiy ehtiyojlar uchun byudjetga mablag' oqimini sezilarli oshirish, ish o'rnlari yaratish hamda O'zbekistonning jahon eksport strukturadagi ulushini oshirishga yordam beradi.

Shubhasiz, bu murakkab vazifa, ammo uni amalga oshirish uchun mamlakatimiz hamda xalqimizda yetarlicha imkoniyat ham, salohiyat ham bor. Strategiyamiz boshqa maqsadli ko'rsatkichlarini yangilash mamlakatga iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish va yangi tahrirdagi Konstitutsiya asosida rivojlanishning yangi tarixiy bosqichiga qadam qo'yish imkonini beradi.

Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasi shunchaki huquqiy hujjat emas, balki xalqimizning azaliy qadriyatlarini, orzu-umidlari va buyuk kelajakka ishonchining yorqin timsolidir. U inson huquqlari, milliy birlik va adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, jamiyat barqarorligi va farovonligini mustahkam asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbarining xalqparvar siyosati jamiyatda chuqur uyg'unlash, yangi tafakkur va ulkan islohotlarga ilhom bag'ishlamog'ida. Bugungi kun nafaqat imtilon, balki xalqimiz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochuvchi davrdir. Konstitutsiya asosida shakllangan adolatli qonunlar, yuksak madaniyat va barqaror taraqqiyot yo'lidagi birgalikdagi qadamlarimiz, shubhasiz, biz orzu qilayotgan farovon kelajakni barpo etishning asosiy garovi bo'ldi.

Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 127-moddasidan.

8-DEKABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

Aholini kambag'allikdan chiqarish borasida ham mahallalarda tizimli ishlar qilinayapti. O'tgan davr mobaynida 208 ming 442 ta oila kambag'allikdan chiqarildi. Natijada kambag'allik darajasi 2,4 foiz qisqarib, 8,6 foizga tushirildi.



Qahramon QURONBOYEV, O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

qo'yildi. Bu borada yagona savolnoma joriy qilindi.

Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yilmoqda. Bu jarayonda xizmat ko'rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o'ziga majburiyat oladi. Endi nafaqa oluvchilar ro'yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo'q, boquvchisini yo'qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko'ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritiladi. Aholiga ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy yordamlar "ijtimoiy karta" orqali moliyalashtiriladi.

Bunday statistik raqamlar, yangilanishlarni yana ko'plab keltirish mumkin. Muhimi, ijtimoiy davlat barpo etishning huquqiy asosi yaratilgan O'zbekistonda davlatning ijtimoiy majburiyatlariga oid normalari qariyb uch barobar ortdi va "Yangi O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili amalda o'z isbotini topmoqda.



hamda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni fuqarolarning manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy o'ziga xos xususiyatlaridan, shuningdek, milliy qadriyatlaridan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, qonunga muvofiq mustaqil ravishda hal etishga haqli.

Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda



"Mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirishda "mahalla yetiligi" bilan banklar o'rtasida hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi. Bandlik dasturlari shakllantirilib, barcha mahallalarga 16 ta bank mas'uli birlashtirildi. Mazkur hamkorlik samarasi o'lroq, bugungi kunda qariyb 703 ming aholi bandligi ta'minlandi."

IJTIMOIY DAVLAT —

INSONPARVAR DAVLAT DEMAKDIR

O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat deb e'lon qilishi bilan har bir fuqarosiga munosib turmush kechirishi uchun shart-sharoit yaratish majburiyatini oldi. Bu mavjud resurslarni ijtimoiy adolat tamoyillariga asosida taqsimlash, jamiyatda kuchli tabaqalanish avj olishiga yo'l qo'ymaslik, eng zaif qatlamlar uchun ham sifatli ta'lim va tibbiyot kafolatlanishi, samarali ijtimoiy himoya dasturlari ishlatilishi, imkoniyat cheklangan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash, adolatli mehnat qonunchiligi va jozibador pensiya tizimi kabilarni anglatadi. Oddiyoq aytganda, eng kambag'al oilaning bolalarida ham sog'-salomat o'sib-ulg'ayib, yaxshi ta'lim olib, farovonlikka erishish imkoniyati bo'lishi kerak.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 154-moddasi bilan 1-moddadagi qoidalar qayta ko'rib chiqish mumkin emasligi belgilandi. 154-moddaning o'zidagi aynan shu qoidadan iborat band ham qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas. Boshqachasi aytganda, bu norma O'zbekiston hech qachon demokratiyadan voz kechmasligi, huquqiy davlatchilikka sodiqligini kafolatlaydi.

Xalq Konstitutsiyasi, deya e'tirof etilgan Bosh qonunimizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini qat'iy belgilangan bejiz emas. Keyingi yillarda bu boradagi qonun hujjatlari, ijtimoiy dasturlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash xarajatlari sezilarli oshib, nafaqa oluvchi oilalar qamrovi 5 barobar ko'paydi. Har bir muhtoj insonga uning real ehtiyojidan kelib chiqib yordam ko'rsatish imkoniyati yaratildi va bu yo'nalishda mutlaqo yangi hamda o'ziga xos tizim ishga tushdi.

Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftar", "Yoshlar daftar", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlab usullari aynan shu maqsadlar uchun joriy etilgan, xotin-qizlar, yoshlar, umuman, ijtimoiy yordamga muhtojlar muammo va kamchiliklari manzilli o'rganilib, ularni o'z vaqtida va samarali hal etish choralarini ko'rilmoqda.

Keksalar va muhtojlar, kam ta'minlangan oilalarga yordam, mehr-muruvvat ko'rsatish xalqimizning o'lmas qadriyati hisoblanadi va bunday egru harakatlar bugun yangicha ma'no-mazmun kasb etyapti, amaliy harakatlar yanada takomillashirilmoqda. "Besh muhim tashabbus", "Har bir oila — tadbirkor", "Obod mahalla", "Obod qishloq", "Yoshlar — kelajagimiz" kabi dasturlar shu maqsadlar uchun xizmat qilayotganini alohida e'tirof etish lozim.

Yuqoridagi fikrlar isbotini quyidagi raqamlarda ham ko'rish mumkin: 2016-yildan 2022-yilgacha ijtimoiy nafaqalarga ajratilayotgan mablag' 10 barobar oshirildi. Natijada ijtimoiy nafaqa oluvchi oilalar soni 5,1 barobar ortib, 1,2 milliondan ziyod oilaga nafaqalar to'lab kelinyapti. Shuningdek, 2021-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali bunday nafaqalarni avtomatik tarzda tayinlash tizimi yo'lga qo'yildi. Bu, o'z navbatida, shaffoflikni ta'minlash imkoniyatini yaratdi.

Mahalla maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlandi

Biz uzoq yillar davomida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida e'tirof etib keldik. Biroq, aslida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi ham, uning mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmasligi ham Konstitutsiyada mustahkamlangan edi. Yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda mahalla institutiga yangicha ta'rif berildi. Ya'ni uni xalq dardi va tashvishi bilan yashayotgan chinakam yirik fuqarolik jamiyati instituti sifatida islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish maqsadida

belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari saylovi tartibi, ularning faoliyatini tashkil etish va vakolatlari qonun bilan belgilanadi".

Mahalla instituti maqomini Konstitutsiyada mustahkamlashning asosiy mazmun-mohiyati shundan iboratki, bugungi kunda barcha soha va yo'nalishlar bo'yicha "mahallabay" ishlab tizimi keng joriy etilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, soliq hamda profilaktika inspektorlaridan iborat ta'sirchan tuzilma faoliyati yo'lga qo'yilgan davlatning ijtimoiy siyosati tuman yoki shahardan emas, balki mahalladan turib amalga oshirilishini ta'minlamoqda. Zotan, yangilangan

Konstitutsiyada O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini belgilanganini hisobga olib, uning bu boradagi siyosati aynan mahalladan boshlanishi mantiqan to'g'ri.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, oxirgi sakkiz yilda mahalla institutini takomillashirishga qaratilgan 100 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan, bu hujjatlarning maqsadi mahallani chinakam ijtimoiy institutga aylantirish va jamiyat boshqaruv tizimida uning alohida o'rni mustahkamlashga qaratilgan. Mahalla — barchamizni jipslashtiradigan, mehr-olibatni, insoniylikni o'rgatadigan, asrlar osha milliy urf-odat va an'analarimizni bezovol saqlab keladigan maskan. Sohadagi islohotlar natijasida

Davlatimiz rahbari qayd etganidek, "Bugungi kunda hamma ish mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilinmoqda. Bu tizim bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda, unga qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu — albatta ham vakolat, ham mas'uliyat degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini".

Ayni yo'nalishda joriy yilning o'tgan o'n oyi davomida qilingan ishlarini sarhisob qilsak, davlatning mahallaga e'tibori, har qanday masala mahalla darajasida hal etilayotgani bejiz emasligi oydinlashadi. Raqamlarga e'tibor berib: yil boshida 25 ta yo'nalish va 401 ta ko'rsatkich asosida 9452 ta mahalla, 208 ta tuman (shahar), 14 ta hudud hamda respublika balansi shakllantirildi. Balans asosida aholi muammolarini bartaraf etish bo'yicha "yo'l xaritasi" va mahallalar "ombor kitobi" ishlab chiqildi. "Mahalla yetiligi" a'zolarining uymay yurib o'rganishlari natijasida infratuzilma bilan bog'liq aniqlangan 278 mingdan ziyod muammolar qariyb 260 mingtasi (93 foiz) hamda aholining ijtimoiy masalalariga oid aniqlangan 201,5 mingga yaqin muammolar 95 foiz hal etildi.

Mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirishda "mahalla yetiligi" bilan banklar o'rtasida hamkorlik tizimi yo'lga qo'yildi. Bandlik dasturlari shakllantirilib, barcha mahallalarga 16 ta bank mas'uli birlashtirildi. Mazkur hamkorlik samarasi o'lroq, bugungi kunda qariyb 703 ming aholi bandligi ta'minlandi. Aynan mahallalar ko'magida Sayxunobod, Zarbdor, G'ijduvon va Uychi tumanlari tajribalari asosida 4 million 713 mingta xonadonda tomorqadan samarali foydalanishga o'tildi. "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida 3 millonga yaqin xonadonda qo'shimcha daromad olish imkoniyati yaratildi.

Aholini kambag'allikdan chiqarish borasida ham mahallalarda tizimli ishlar qilinayapti. O'tgan davr mobaynida 208 ming 442 ta oila kambag'allikdan chiqarildi. Natijada kambag'allik darajasi 2,4 foiz qisqarib, 8,6 foizga tushirildi.

Kambag'al oilalarning 6,5 mingdan ziyod a'zosi doimiy ishga joylashtirildi, qariyb ikki ming nafari haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb etildi. 6,5 mingdan ortiq oilaga 11,8 milliard so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatildi, 16 ming 600 ga yaqin nafaqa tayinlandi. Bunday toifadagi oila a'zolariga 25,1 milliard so'm subsidiya, 40,3 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

Bosh qonunimizda "Davlat fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, ularga qonunda belgilangan vakolatlarini amalga oshirishida ko'maklashadi", deyilgan. Shunga ko'ra, o'tgan davr mobaynida "mahalla yetiligi"ga qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida barcha mahallalarning moddiy-texnik ta'minoti xatlovdan o'tkazildi. 250 ta mahallaga yangi bino qurildi, 392 tasi joriy, 79 tasi kapital ta'minlandi, 59 tasi rekonstruksiya qilindi. Ayni paytda yana 211 ta mahallaga yangi bino qurilmoqda, 83 tasi joriy, 34 tasi kapital ta'minlandi, 42 tasi rekonstruksiya qilinayapti.

Mahallalarga ko'plab vakolatlar berilgani bilan unga moliyaviy mustaqillik berilmasa,



6,5 mingdan ortiq oilaga 11,8 milliard so'mlik moddiy yordamlar ko'rsatildi, 16 ming 600 ga yaqin nafaqa tayinlandi. Bunday toifadagi oila a'zolariga 25,1 milliard so'm subsidiya, 40,3 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratildi.

uning maqomi Konstitutsiya darajasida e'tirof etildi. Bosh qonunning mahalliy davlat hokimiyati asoslariga bag'ishlangan XXI bobiga fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi tushuncha ham kiritildi. Shunga ko'ra, 127-moddada bunday deyiladi:

"Shaharchalar, qishloqlar va ovullarda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular raisini saylaydi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi



u hayotimizga daxldor barcha masalalarni hal etishda xalq va davlatni bir-biriga yaqinlashtirib, munosabatlarni tartibga soluvchi muhim tuzilmaga aylandi.

Xususan, hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlari kengaytirildi, ularning moliyaviy mustaqilligi kuchaytirildi. Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlab qaratilgan jarayonlar raqamlashtirildi. Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlash maqsadida O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 9452 ta mahalla faoliyat yuritmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Bunyodkorlik

MUNOSIB TURMUSH SHAROITI YARATISH

ISLOHOTLARIMIZ ASOSI

Sherzod HIDOYATOV,
qurilish va uy-joy kommunal
xo'jaligi vaziri

Odamlarning og'irini yengil qilishga, inson qadri ustuvorligiga qaratilgan siyosat samarasi bugun hayotimizning har bir jehdasida amalda namoyon bo'layotir.

O'zim shu soha vakili va mas'uli sifatida bu samarani ko'proq qurilish, bunyodkorlik ishlarida ko'raman. Axir o'tgan qisqa davrda mazkur sohada ozmuncha ishlar qilindimi? Natijada bir paytlar ovloq, tashlandiq, odam yashashini tasavvur qilish qiyin joylarda katta-katta mavzellar, mahallalar, zamonaviy ijtimoiy obyektlar paydo bo'ldi. Bugun ular odamlarning sevimli maskaniga, obod manzilga aylangan. Oqilona insonparvar siyosat, xalqimizning bunyodkorlik shijoati tufayli yo'qdan bor bo'ldi.

Bir misol. Yaqinda Prezidentimiz Yangi hayot tumanidagi Xushnud mahallasida bo'lib, aholi hayoti, hududidagi o'zgarishlar bilan tanishdi.

Bugun kelishimizdan maqsad qabul qilayotgan qarorlarimiz natijasini, odamlar hayotini ko'rish. Xuddi bu tumandagiday har bir hududni rivojlantirish, odamlarga qulayliklarni va ish joylarini ko'paytirishga harakat qilaymiz. Shu bilan birga, ta'lim-tarbiyaga, madaniyatga katta e'tibor qarataymiz. Bilim va ma'naviyat mustahkam bo'lsa, iqtisodiyot ham yaxshi rivojlanadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Mahalla 2021-yili tashkil etilgan. Bu yerda 48 ta ko'p qavatli uy hamda 625 ta hovlida 11 mingdan ziyod aholi yashaydi. Avvallari bu joylar chekka, ko'rimis edi. 2018-yildan boshlab zamonaviy uylar, bolalar o'yinchoi va sport maydonchalari qurildi. Atrof obodonlashtirildi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Umuman, Yangi hayot — yangi tuman. Unga qo'yilgan poydevor hududda ko'plab turar joylar barpo etilishi va minglab oilalarning ko'chib kirishi bilan bog'liq. Natijada bugunga kelib yangi O'zbekistonning yangi tumani sanoati, tadbirkorligi, infratuzilmasi rivojlangan, odamlar kayfiyati yuqori hududga aylandi. Farzandlaringiz shu yerdagi bog'cha yoki maktabga boradi, mahallangizda zamonaviy zavod-fabrikalar quriladi, deyilsa, birov ishonarmidi? Yo'q. Keyingi sakkiz yildagi islohotlar odamlarning turmush tartibidan yaxshiladi, ana shunday xayoliy tasavvurlarni hayotga ko'chirdi. Qarashlarimizni o'zgartirdi.

Chindan ham bunday ko'lamdor bunyodkorlik jarayoni shahar qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirish barobarida odamlar hayotiga fayz, mazmun va baraka bag'ishlayapti. Maxsus dasturlar asosida qad rostlayotgan arzon turar joylar, namunali uylar, yangi massivlarda odamlar munosib hayot kechirmoqda.

2017-yildan bugungacha qadar respublikamiz bo'yicha jami 400 mingga yaqin xonadondan iborat salkam 8 mingta ko'p qavatli uy barpo etilgan fikrimiz dalildir. Binobarin, birgina obyektning ishga tushirilishi tufayli kimdir uyli, kimdir ishli bo'layapti, hududlar infratuzilmasi yaxshilanib, qiyofasi yanada chiroy ochyapti.

Mamlakatimizning demografik o'sish sur'ati yangi uylarga bo'lgan talabni tobora oshirmoqda. Shu bois, joriy yilda 2,5 ming gektar hududda 53 ta "Yangi O'zbekiston" massivlari bunyod etilmoqda. Kelgusi besh yilda aynan shunday massivlarda yana 250 mingdan ziyod oilani uy bilan ta'minlash rejalashtirilgan.

YANGI O'ZBEKISTON

Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir.
Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas.
Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'rvonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas.
Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi.



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz

INSON QADRI ILA YUKSALGAN ADOLAT

Mamlakatni taraqqiy ettirishning yagona yo'li xalq va hukumatning birdamligi, bir butun xalq, yagona vatan bo'lib olg'a intilishdir. Bu o'z-o'zidan mamlakat oldiga ijtimoiy adoladni ta'minlashdek muhim vazifani qo'yadi. Ulug' ajdodlarimiz azaldan ijtimoiy davlat g'oyasini ilgari surgan. Xususan, buyuk bobimiz Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asari orqali ma'rifatlilikni jamiyatni ulug'lagan. Inson kapitaliga jiddiy e'tibor bergan.

Buni yana boshqa ko'plab ajdodlarimiz ilmiy merosida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Alisher Navoiy o'z ijodida insonlarning baxtli yashashi uchun munosib ijtimoiy muhit yaratish, farovon jamiyat qurish, ma'rifatlilikni davlat boshqaruvi, adolatparvar va odil hukmdor, insonlar o'zaro mehr-oqibatli va bag'oyat axloqli bo'lishi kabi qarashlarni ilgari surgan.

Yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizda O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanini qat'iy belgiladi. Shu orqali ajdodlar orzusiga monand ish ko'rish, uni amalga oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlar amaliy tus oldi. Ma'lumki, "ijtimoiy davlat" negizida "inson qadri ulug'lash" g'oyasi yotadi. Bu har bir fuqaroning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini kafolatlash, sifatlilik ta'lim va tibbiy xizmat, bolalar, xotin-qizlar, qariyalar, nogironligi bor shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlar bandligi, uy-joy bilan ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini kafolatlash, deganidir. Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi ijtimoiy davlat qurish ekanini belgilab berish orqali mazkur yo'nalishdagi ishlar ortga qaymas tus oldi. Ayni paytda bu boradagi islohotlar yangi bosqichga chiqdi. Ijtimoiy adolat, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmini nazarda tutadigan konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Shu tariqa tarixda ilk bor O'zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilandi. Ya'ni insonga e'tibor hamda g'amxo'rlik davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekanini qayd etildi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyada kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilandi. Umuman, davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlarini bilan bog'liq normal soni 3 barobar ko'paydi, mazkur mas'uliyatni ta'ado etish borasidagi islohotlar jadal tus oldi. Bugun "O'zbekiston — ijtimoiy davlat" tamoyili asosida aholini qo'llab-quvvatlash, bu sohada xizmatlarni kengaytirish va sifat ko'rsatkichini yanada yaxshilash borasida izchil ishlar bajarilmoqda.

Muhimi, barcha islohotlar va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar — "Inson qadri uchun", "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak", "Davlat — inson uchun", "Inson — jamiyat — davlat" degan xalqchil tamoyillar asosida olib borilmoqda. Buni so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda o'ziga xos yangi tizim yaratilganida ham ko'rish mumkin. Jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftrasi", "Yoshlar daftrasi", "mahallabay" va "xonadonbay" ishlar usullari orqali xotin-qizlar, yoshlar, umuman, ijtimoiy yordamga muhtojlarning muammo va kamchiliklari o'z vaqtida va samarali hal etilmoqda.

Mamlakatimizda aholining ijtimoiy himoyasiga alohida e'tibor qaratilib, ijtimoiy xizmat turlari va ko'lamini kengaytirilmoqda. 2023-yil 1-iyunda davlatimiz rahbarining "Aholiga sifatlilik ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Unga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Shu orqali mazkur yo'nalishdagi ishlarini bir joyda markazlashtirib, samarali amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. Agentlik aholini ijtimoiy himoya qiladigan, shu turdagi xizmatlar ko'rsatadigan, yagona davlat siyosatini ishlab chiqib, amalga oshiradigan vakolatli davlat organidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish



Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

strategiyasi ham tasdiqlandi. Bundan maqsad mehnatga layoqatli aholini ijtimoiy ta'minot bilan qamrab olish, ijtimoiy sug'urta tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, ijtimoiy yordam dasturlarini mustahkamlash, xususan, ijtimoiy yordam tayinlash mezonlarini doimiy ravishda takomillashdirib borishdan iborat.

O'tgan davrda agentlik tomonidan ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi va manzilligini joylarga chiqib o'rganildi. Bu jarayonda tizimni mahalla darajasida adolatlilikni ta'minlash, to'g'ri moliyalashtirish, og'ir ahvolda tushib qolgan odamlarning ijtimoiylashtirishga ko'maklashish borasida qator ishlar bajarilmoqda.

Yaqin davrga qadar muhtoj aholi turli ijtimoiy xizmat va yordamlarni olish uchun mahalliy hokimliklar yoki mahalla raislari oldiga borishi, hujjatlar yig'ishi va bir nechta joyga murojaat qilishi kerak edi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori Mansurbek Olloyorov. — Bugun barcha ijtimoiy xizmatlarni agentlik tasarrufidagi "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar orqali ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Aholiga ijtimoiy xizmat va yordamning bir joyda taqdim etilishi orqali ortiqcha sarsongarilik va qog'ozbozlikka chek qo'yildi.

Ilk bor 208 ta tuman (shahar)da ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yilib, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish mahallaga tushirildi. Ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish hamda ijtimoiy ish (keys menejment)ni tashkil etish maqsadida "Yagona milliy ijtimoiy himoya" AT tarkibida "Inson" AT va E-case elektron modullari ishlab chiqildi.

O'tgan yili 49 turdagi ijtimoiy xizmat va yordam soni 103 ta (2 barobar)ga yetkazildi va raqamlashtirildi hamda elektron modullar vazirlar va idoralarning 55 ta ma'lumotlar bazasi bilan integratsiya qilindi. Ijtimoiy xizmat va yordam olish uchun 4 millionga yaqin ariza kelib tushgan. Bundan tashqari, ijtimoiy xizmatlar fuqarobay



ishlash tizimi jadal davom etyapti. Bunday katta ko'lamda barchaga birdek yordam berish, adolatlilik ta'minlash oson emas. Shu bois, ehtiyojmand aholi muayyan standartlar asosida 12 toifaga bo'lingan. Bu fuqarolar bilan individual ishlash imkonini beradi. Mazkur tizim natijasida shu yilning o'zida 3,6 million shaxs ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan qamrab olindi. Ularga 1,9 millionta ijtimoiy xizmat ko'rsatildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlash, huquqlarini himoya qilish, kasb-hunarga yo'naltirish va xavfsiz boshpanaga joylashtirish borasida ham qator ishlarini bajarilmoqda. Xususan, 2024-yildan boshlab mamlakatning barcha hududlaridagi tuman (shahar) markaziy shifoxonalarining shoshilinch qabul bo'limida birlamchi ko'mak xonalari tashkil etildi. Tazyiqqa uchragan ayollarga "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan himoya orderi talab qilmagan holda kompleks ijtimoiy xizmatlar olish imkoniyati yaratildi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarida qatnov shaklida psixologik va huquqiy yordam ko'rsatish amaliyoti yo'lga qo'yilishi natijasida besh mingdan ortiq xotin-qizga bevosita mahallada yordam ko'rsatildi. Bu inson qadri ulug'lash, muammolarni mahallaning o'zida hal etishdagi amaliy ishlardan biri bo'ldi.

Odatda tazyiq va zo'rvonlikka uchragan ayollar kuchli ruhiy bosim ostida bo'ladi. Ularni odatiy turmush tarziga ko'niktirish uchun muayyan vaqt talab etiladi. Qisqa muddatdagi tajriba asosida reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlarida tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga xizmat ko'rsatishning eng ko'p muddati 2 oydan 6 oyga uzaytirildi.

Bu sa'y-harakatlar har bir insonning, jumladan, ayollarning ham huquq va manfaatlarini hurmat qilish, jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan. Bu esa mamlakatning umumiy taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiladi.



Ilk bor 208 ta tuman (shahar)da ijtimoiy xodimlar faoliyati yo'lga qo'yilib, ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish mahallaga tushirildi. Ijtimoiy xizmat va yordamlar ko'rsatish hamda ijtimoiy ish (keys menejment)ni tashkil etish maqsadida "Yagona milliy ijtimoiy himoya" AT tarkibida "Inson" AT va E-case elektron modullari ishlab chiqildi.

natijaga erishib bo'lmaydi. Davlat iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rnlari yaratish va ish haqining munosib darajasini ta'minlashning barcha choralarini ko'rmolmoqda.

Davlatimiz rahbari alohida e'tibor qaratayotgan ushbu omillar, albatta, ijtimoiy himoya samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, kambag'allikni qisqartirish va kuchli ijtimoiy himoyaning mukammal tizimini yaratish yangi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishiga aylangan.

Aniq maqsadli kompleks chora-tadbirlar esa yurtimizda har bir insonning farovon hayot kechirishi va keng imkoniyatlaridan foydalanishini ta'minlaydigan tom ma'nodagi adolatlilik jamiyatni barpo etishga ko'maklashadi. Mamlakatimizda bu borada salmoqli va samarali ishlab chiqilgan. Zero, har bir mamlakat rivojlanish jarayonida kambag'allikni qisqartirish bosqichidan o'tadi. O'zbekiston ham 2020-yilda aholining muayyan qismi kambag'al ekanini tan olib, ularga madad berishga kirishdi. Moliyaviy tashkiliy choralar ko'rilib, tizim joriy qilindi. Bu o'z samarasini berib, uzog yillar og'ir vaziyatda bo'lgan 3 milliondan ziyod odamning sharoiti yaxshilandi. Kambag'allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi. Kelgusi uch yilda kambag'allik darajasini 11 foizdan 7 foizga qisqartirish maqsad qilingan.

Asosiy maqsad ham ijtimoiy himoya bilan bandlik xizmatlarini o'zaro integratsiya qilgan holda oilalar bilan ishlash, ularni manzilli, aniq rejalar asosida kambag'allikdan chiqarishdan iborat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz ijtimoiy himoya tizimini yangi bosqichga ko'tarib, jamiyatning barcha qatlamlari uchun haqiqiy kafolatga aylantirdi. Ushbu tamoyil mamlakatimizda ijtimoiy adolat va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan islohotlarning huquqiy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Har kim qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qotganda, ishsizlikda, shuningdek, boquvchisini yo'qotganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot huquqiga ega. Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasi.

www.yuz.uz | yuz.uznews | yuz_official | yuz.uz_news | yuz



Sodiqjon TURDIYEV, "Nuroniylar" jamg'armasi respublika boshqaruvi raisi, senator, O'zbekiston Qahramoni

Har bir mamlakatning o'z yuksalish uslubi bor. Yuksak taraqqiyot yo'lini belgilab olgan yangi O'zbekiston bu yo'ldan dadil odimlamoqda. Ushbu jarayonda mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada yaxshilash, oilalarda ahillik va totuvlikni ta'minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat va ona vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilgan. Binobarin, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 78-moddasida "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi", deb mustahkamlab qo'yilgan.



Bugun mamlakatimizdagi barcha "Nuroniylar maskani"da bog'lar barpo etildi. "Onalar bog'i", "Nuroniylar bog'i", "Do'stlik va birdamlik bog'i", "Nuroniylar va yoshlar" bog'lari shular jumlasidan.

Tarbiya posbonlari

"Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir", degan edi jaded bobomiz Abdulla Avloniy. Ildizi qadim qadriyatlarimizga tutashgan tarbiya mezonlarida yoshi ulug' otaxon va onaxonlar hamisha mas'uliyatli bo'lib kelgan. Shu o'rinda bir hayotiy haqiqatni aytishimiz kerak: farzand tarbiyasida yosh ota-onalarning tajribasi yetarli emas. Ular farzandning idealidagi shaxslardek bo'lishini istaydi. Bolaning imkoniyati, salohiyatini hisobga olmay, undan bekam-u ko'stik talab qiladi. Bu holat navnhil o'g'il-qizlar ruhiyatini sindirishi, ko'nglini cho'ktirishi mumkin. Kuzatuvlarimiz asosida aytishimiz mumkin, bola tarbiyasida ayrim paytlarda sansorlik holatlariga ham duch kelmaymiz. Ayrim ota-onalar bola tarbiyasini maktabdan, ustozlardan talab qilsa, ustozlar tarbiya masalasi ota-onaning zimmasida ekanini ta'kidlaydi. "Bir bolaga yetti mahalla — ota-onam" degan tamoyil asrlardan beri asrab kelinayotgan

MAHALLANING MA'NAVIIY USTUNLARI

Yoshlar tarbiyasi, mahallalar va oilalarda hamjihatlik muhitini asrab-avaylashda nuroniylarga katta ishonch bildirilayotgani bejiz emas. O'zbekona qadriyatlarimizda oilaviy an'analarning avlodlarni avlodga o'tirishi, oila va mahallalar obodligini ta'minlashda ahillik va hamjihatlik muhim ekanini hamimizga ma'lum. Bizda oilalar mahallaga, mahallalar esa vatanga jamlanib boradi. Bu qadriyatlar silsilasida mahalla va oilalarning ma'naviy ustuni bo'lgan keksa avlod vakillarining alohida o'rni va mas'uliyati bor.

Odamlarning qalb quyoshi qachon uyg'onadi?

Prezidentimizning joriy yil 23-sentabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida belgilangan tizimli ishlar kambag'allikdan qiyalayotgan oilalar vakillariga kasb-hunar o'rgatib, jamiyat hayotidagi ishtirokini ta'minlash va farovonligini oshirish yo'lida ulkan harakatga aylangan ayni haqiqat. Bugun yurtimizda barcha oilalarni farovonlikka olib chiqishga keng yo'l ochildi. Yonimizda yashayotgan odamlarning har biri yaxshi yashash, jamiyatda o'z o'rnini topish, farzandlarini bilimli qilib o'stirishni istaydi. Kambag'allikka tushib qolgan hamyurtlarimizning ko'pi o'z vaqtida kasb-hunar egallagan, yaxshi maslahatchi, qo'llab-quvvatlovchi topa olmagan sababli tushkun kayfiyat bilan shu ahvolda kelgan. Mahallalarning yoshi ulug'larini o'sha joyning pastu balandini, odamlarini, qaysi oilaning qanday muammosi borligini, qaysi xonadon kambag'allikdan qiyalayotgani va buning sababini yaxshi biladi. Nuroniylar kambag'allik otilarga kirib, xonadon muhitini ichidan o'rganib, muammolariga yechim topishga ko'maklashmoqda. Davlatimiz rahbarining joriy yil 25-noyabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan biz, nuroniylar zimmasiga oilalarni kambag'allikdan

chiqarish, xonadon tomorqasidan samarali foydalanish, tomorqada yuqori daromadli ekinlar ekilishini tashkil etish, ularni parvarishlash ko'nikmasini shakllantirish hamda yetishtirilgan mahsulotlarning realizatsiya qilinishiga yordam berish kabi yo'nalishlarda muhim vazifalar yuklandi. Mahallalarimizda yerning tilini yaxshi biladigan keksa bog'bon, usta dehqon nuroniylar juda ko'p. Atrufimizda kasb-hunari yo'q yoki muayyan hunar egallagan bo'lsa-da, hayotda yo'lini topa olmay qiyalayotgan yoshlar, kambag'allikdan chiqib ketish yo'lini izlayotgan oilalar bor. Bunday oilalar daromadli bo'lish uchun ko'chma do'konlar, kichik ishlab chiqarish uskunalar va boshqa zarur texnika vositalari olishni orzu qiladi. Prezidentimizning mazkur qarori bilan endi bunday oilalarning mushkuli yengillashadi, qolaversa, nuroniylar o'zining noyob tajribasi va maslahati bilan ularga ko'makdosha bo'ladi. Shuningdek, kambag'all oila farzandlarining qiziqishidan kelib chiqib, mahalladagi hunarmand va ustalar shogirdlikka berilishi, ta'lim muassasalarida o'qiyotgan o'g'il-qizlarining esa o'quv jihatida hamda sport kiyimlari bilan ta'minlanishi mamlakatimizdagi minglab oilalarning farovonligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadam bo'ladi. Mamlakatimizda aholi salomatligini asrash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan. Ayni yo'nalishda aholi, xususan, yoshi ulug' otaxon va onaxonlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda, mazkur qarorda mahallalarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish yo'nalishida piyoda yurish madaniyatini shakllantirish, xonadonlarning sanitariya holatini yaxshilash va tozalikni saqlash, oila a'zolarini zararli odatlardan voz kechishga chaqirishga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan ayni muddao bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra, shaxmat-shahka, futbol va keksalarga mos boshqa sport turlari bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalar ko'lami kengayishi hamda ularda nuroniylar ishtirokini ta'minlashga qaratilgan ishlar ham yoshi ulug'larini behad mamnun etmoqda.

Nuroniylar — har bir oilaga mas'ul

Nuroniylarning xonadonlarga kirib o'rganishi ta'limga ko'ra, kambag'all oila o'z sayotgan bolalarining ko'pchiligi tirikchilik tashvishini juda erta zimmasiga oladi. Natijada maktabda o'qishi, ta'lim olishiga e'tibor

susayadi. Bunday yoshlar aksariyat holatda imkoniyati va salohiyatini to'la yuzaga chiqarolmaydi. Bu, o'z navbatida, bolada ruhiy og'riq va jarohatlarni paydo qiladi. Agar tarbiyaga ham e'tibor berilmasa, bu bolalarning kelajakda katta ehtimol bilan noto'g'ri yo'llarga kirib ketishi holati kuzatiladi. Natijada jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy hayotida og'riqli muammolar paydo bo'laveradi. Shu sabab ham mamlakatimizda har bir oilaga, unda voyaga yetayotgan har bir o'g'il-qizga alohida e'tibor qaratish tizimi yaratildi. Bugun "Nuroniylar — har bir oilaga mas'ul", "Bir nuroniylar — o'n yoshga mas'ul" tamoyillari asosidagi ishlar zamirida ham mana shu ezuq maqsad mujassam. Oilalarda iqtisodiy muammolarni yuzaga

mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda juda katta samara berishini Qo'non va Marg'ilon shaharlaridagi mahallalar misolida ko'rdik. Shu ma'noda, nuroniylar oilalarda ahillik va milliy qadriyatlarini mustahkamlash, mahallalarda hamjihatlik va yaxshi qo'shnihilik aloqalarini rivojlantirish borasidagi vazifalar mas'uliyatini juda yaxshi his etadi. Xalqimiz azaldan oilani oltin qo'rg'on deb bilgan va uning mustahkamligiga kayvonilar, oqsoqollar, shu xonadon kattalari o'zini javobgar hisoblagan. Chunki oilaviy ajralishlar tufayli farzandlarning ota-onamehridan bebahra o'sishi barcha davrlarda ham jamiyatning og'riqli muammosi bo'lib kelgan.



keltiruvchi qator omillar mavjud. Afsuski, ortiqcha sarf-xarajat, isrofgarchilik, boyligini ko'z-ko'zlash va dabdabozlik kabi illatlardan hali to'la xalos bo'lganimiz yo'q. Ko'pchilik hamyurtlarimiz dabdabali to'ylar, yengil-yelpi orzu-havas tufayli qarzga botib, oilasini qiyin ahvolda solib qo'yimoqda. Hayotda katta tajribaga ega kayyonni otaxon va onaxonlar isrofgarchiliklar oqibatida yuzaga keladigan doimiy yetishmovchiliklar natijasida bunday xonadonlarda o'z sayotgan bolalarining qalbi kemtik bo'lishi ham yaxshi biladi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Nuroniylar va ota-onalar kengashi"

natijasida 11 mingga yaqin muammoli oilada ijtimoiy barqarorlik ta'minlandi. Afsuski, oilalarda muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirayotgan omillardan yana biri — yaqin qarindoshlar o'rtasidagi hamda erta nikohlar haliyom uchray turibdi. Unga sababchi bo'layotgan ota-onalar bu muammolar bizga tegishli emas deb o'ylashi mumkin. Biroq hozir nogironlik bilan tug'ilayotgan bolalarning 80 foizi xuddi shunday nikohlar hosilasi ekanini sir emas. Rad etib bo'lmay bu raqamlar ortida qancha muammoli taqdir, qiyinchilik va mashaqqat bilan yashayotgan notinch oilalar bor. Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilik ham ko'p hollarda mana shunday muammoli oilalarda idiz otayotgani ayni haqiqat. Yigitlarga yoshligidan hunar o'rgatish, o'z qiziqqan sohada bilimni, yetuk shaxslar bo'lishiga imkon yaratish zarurligini ota-onalarga uqtirish ham nuroniylarning kum tarbiyadagi masalalardan. Yigitlar kasb-hunari, oila tebratishga tayyor bo'lib uylansa, kelishmovchilik va yetishmovchiliklar ham o'z o'zidan bartaraf bo'ladi. Shuningdek, ayrim hollarda aka-uka, opasigil, ota-o'g'il, jigarlar o'rtasida mehr-ohiqat ko'tarilayotgani ham oilaviy kelishmovchilik va notinchliklarni yuzaga keltirmoqda. Bunday paytlarda o'sha mahallaning "Keksalar maslahati" guruhidagi obro'-e'tiborli, faol 15 nuroniylar, albatta, o'z o'zini aytib, necha ming yillardan beri asrab-avaylab kelayotgan qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirimoqda. Pirus badavlat nuroniylar, namunali hayoti bilan mahallasida o'mak bo'lib kelayotgan otaxon va onaxonlar ishtirokida "Qo'sha qarish soatini" ma'rifiy tadbirlari muntazam o'tkazib kelmayotgani, ularning tajribasi, o'giti va nasihatlari yosh oilalarda ahillik va totuvlik muhitini asrashda o'ziga xos hayot maktabi vazifasini o'tamoqda. Yosh oila vakillariga oila muqaddas ekanini, unga gard yuqtirmasdan asrash kerakligini doimiy tushuntirish lozim. Toki ular ham ota, ham onaning farzand kamoloti yo'lidagi mas'uliyatini his etsin.

Nuroniylarning har bir ishi zamirida milliy qadriyatlarimizning hayotiy ifodasi aks etadi. Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab ko'chat ekish, hashar yo'li bilan bog'-rog'lar barpo etish, imoratlar atrofini ko'kalanzorlashtirish kabi ezuq an'analarni mustahkamlash chorasi ko'riladi. Oilalarda totuvlik va ahillik muhitini shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishleri olib boriladi. Nuroniylar otaxon va onaxonlar etralab quyosh chiqqandan to botgunicha shu oilalar muammolarini hal etish uchun harakat qilmoqda. Ularning mahalliy hokimliklar, mutasaddi tashkilotlar, "mahalla yettilligi" bilan hamkorlikdagi sa'y-harakatlari

yurtimizda tarbiya borasida bunday sansorlik va o'zblamnonlik holatlari bo'lmisligi uchun ham nuroniylarning mahalladagi so'zi, nazoratini juda muhim.

Bobo-buvilari, mahalladagi otaxon va onaxonlar bilan doimiy subhatlashib, ularning nasihatini eshitib yurgan bolalarni kuzatganmisiz? Ular murg'akligidanoq "danakday" pishiq bo'ladi. Milliy qadriyatlarimizga hurmat, ona vatanga muhabbat tuyg'ulini ham ularda etika shakllandadi. Mahallalarda jamoatchilik asosida ish yuritayotgan "Keksalar maslahati" guruhlari va "Buvijonlar maktabi" faollari, ta'lim maskanlari va "mahalla yettilligi" hamkorligida o'quvchilarning qiziqish va intilishlari o'rganilib, shu asosda ustozlari va ota-onalariga muayyan tavsiyalar berilmoqda. Har shesha kuni "Nuroniylar tarbiyaviy soati", payshanba kunlari esa "Nuroniylar bilan ma'naviyat soati" o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Qahramonlari, "El-yurt hurmati", "Buyuk xizmatlari uchun", "Fidokorona mehnatlari uchun" ordenlari sohiblari, paralimpiya o'yinlari g'oliblari, olimpiada chempionlari, fan olimpiadalarining oltin medali sovrindorlari ishtirokida o'tayotgan "Uch avlod uchrasuvi" ma'rifiy tadbirlari bugun Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "mardlik va matonat saboqlari"ga aylanganidek. Yoshlarimiz bunday uchrashuvlardan so'ng o'z oldiga katta maqsadlarni qo'yayotgani e'tirof etaypti. Shuningdek, "Bir nuroniylar — o'n yoshga mas'ul" tamoyili ham nuroniylar va yoshlar o'rtasida ma'naviy ko'priq vazifasini o'tamoqda. Hayotidagi turli muammolar tufayli qiyalib yurgan minglab yoshlar nuroniylar-murabbiylar yo'l-yo'rig'i bilan hayotda o'z yo'lini topib, oilasiga ham, atrofodlarga ham yordam bermoqda.

Mamlakatimizda nuroniylarning jamiyatimizdagi o'rni va nufuzi yuksalib, mahalla va oilalar hayotidagi mas'uliyati ortgani mana shunday yuksak samara berayotganidan ular behad mamnun bo'lmoqda. Aslida, e'tibor va ishonch odamga kuch-quvvat, g'ayrat-shijoat beradi. Bugun jamiyatimizda yoshi ulug'larga hurmat-ehtriom, e'tibor kuchaydi. Nuroniylar ana shu ishonch va e'tibordan kuch olib, g'ayrat-shijoat bilan mahallalar obodligi, oilalar tinchlik-totuvligi, o'g'il-qizlarimizning baxtli-saodatli bo'lishi yo'lida mehnat qilmoqda. Zero, yangi O'zbekistonimizda el-yurtimiz taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi, mahallalarimiz obodligi yo'lidagi islohotlarga kamarbasta bo'lish eng ulug' maqsadimizdir.



Dilfuza ABDURAHMONOVA, Rishton tumani 49-umumta'lim maktabi direktori o'rinbosari

Keyingi sakkiz yilda ta'lim tizimida juda katta islohotlar qilinib, yangi O'zbekistonda o'qituvchi va murabbiylarga yuksak darajada e'tibor qaratilmoqda. Bu e'tibor yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda alohida

Konstitutsiya — taqdirimda O'QITUVCHILAR ALOHIDA E'TIROFDI

Yigirma olti yildan buyon xalq ta'limi sohasida ishlab kelyapman. O'tgan davr mobaynida ta'lim jarayoni bilan bog'liq islohotlarni, turli ma'naviy hamda moddiy nohaqliklarni boshimdan o'tkazdim, guvoh bo'ldim. Erta bahordan qishning qorli kunlarigacha dalalarda mehnat qilganimiz, tashkilotlarning turli bosimlari va tazyiqlarini hozir eslasam, ko'nglim allanechuk bo'lib ketadi.

mustahkamlandi. Unda o'qituvchi sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishiga davlatning g'amxo'rlik qilishi to'g'risida alohida band kiritilishi jamiyatda ustozlar naqadar yuksak darajada ulug'lanishining amaliy isboti bo'ldi. Maktabimiz tuman markazidan 30 chaqirim o'limda joylashgan. Lekin sharoit va imkoniyatlarimiz markazdagi maktablardan aslo qolishmaydi. Shu kunga qadar jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlari qayd etilmagan. O'quvchilarning tuman, viloyat va respublika miqyosida o'tkazib kelinayotgan ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmog'ida. 2021-yil Xalq ta'limi

vazirligi tomonidan o'tkazilgan "Besh tashabbus axborot texnologiyalari bilan" festivalida ikki o'quvchimiz g'olib bo'ldi. "Besh tashabbus kitob bilan" festivalida ham g'oliblikni qo'lga kiritdik. Buxoro shahrida qo'l jangi bo'yicha o'tkazilgan chempionatda 9-sinf o'quvchisi Jasurbek Kamolidinov chempionlik shohsupasiga ko'tarildi. Farg'ona viloyati "Barkamol avlod" bolalar maktabi tomonidan o'tkazilgan "Varraklar sayli"da 3-sinf o'quvchisi Shohruxbek Nabijonov viloyat miqyosida ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi. "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport kengashi tomonidan o'tkazilgan "Biz iqtidor egalarimiz" tanlovi viloyat



bosqichi, "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovida maktabimizning "Yosh yulduzlar" jamoasi sovrindor bo'ldi. Maktab o'quvchilari o'rtasida

o'tkazilgan "Turon maktab teatri" tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etdik. "Dillarda Vatan madhi" yosh ijodkorlarning she'riyat tanlovi

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni va shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 52-moddasi.

sovrindori Rayonaxon Zokirova ijodiy ishlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat targ'ibotchilari jamiyati bilan hamkorlikda tayyorlangan "Tuyg'ular tongi" to'plamidan o'rin oldi.

Bu kabi yutuqlar, muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishimizda Konstitutsiyamizda belgilab berilgan imtiyoz va imkoniyatlarning o'rni katta. "Inson qadri uchun" g'oyasi asosida o'qituvchi va murabbiylarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lomlashtirish ishlariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunday yuksak e'tibor va g'amxo'rlik kishiga yangi kuch va za'vq berish bilan birga ish unumdorligini oshirish, yangi g'oya va tashabbus, izlanish, intilishlar sari chorlayveradi.

Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart. Tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy meros davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasi.

Munosabat

Keyingi sakkiz yil davomida yangi O'zbekistondagi tarixiy islohotlar yurtidoshlarimiz ongiga tafakkuri va kundalik hayotida birday aksini topmoqda. Bugun har birimiz kun sayin rivojlanib, jahonda o'z o'rnini va aytar so'ziga ega bo'lib borayotgan salohiyatli davlatning fuqarosi ekanimizni dildan his etib yashayapmiz.



TEATR IBRATXONADIR

Qaror yuksalishning yangi davriga yo'l ochmoqda

Nodirbek SAYFULLAYEV,
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor



San'at va madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining o'tgan yil 22-dekabrda kengaytirilgan yig'ilishida Prezidentimiz san'at va madaniyat sohasining buguni va ertangi qiyofasi qanday bo'lishi zarurligini aniq-ravshan ko'rsatib bergan edi. Yaqinda davlatimiz rahbari imzolagan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror sohada yuksalishning yangi davriga yo'l ochdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mazkur hujjatda 2025-2030-yillarda "Milliy qahramon" va "Inson qadri uchun" mavzularida 32 ta spektakl sahnalashtirish belgilangan teatrlarimizdagi ijodiy jarayonlarni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi tomoshabin hayot haqiqati xolis va haqqoniy tasvirlangan, yaxlit badiiy mazmunga ega sahna asarlariga ehtiyoj sezmoqda. Endi yangil-yelpi mavzularga qurilgan arzon-garov tomoshalar bilan kishilar qalbiga yo'l topish imkonidir. Qolaversa, internet sahifalarida ma'nisiz kontentlar haddan tashqari ko'paygan bir sharoitda sahna asarlari saviyasini oshirish hayot taqozosiga aylangan.

Shu ma'noda, Prezidentimiz qarorida teatr dramaturglari uchun Mahmudxo'ja Behbudiy, yosh rejissyorlar uchun Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofotlar ta'asis etish belgilangan ayni muddao bo'ldi. Chunki bugun teatr sohada dramaturgiya eng o'g'riqli masalalardan biri hisoblanadi. Yangi ruhda spektakllar yaratish uchun, avvalo, mahoratli dramaturglar zarur. Taassufki, shu choqqacha bizda bu borada katta bo'shliq bor edi. Aynan dramaturgiya bo'yicha nufuzli mukofot ta'asis qilinishi iqtidorli va tajribali yozuvchi-shoirlarning ushbu janrga qiziqishini oshirib, yoshi, sermazzun sahna asarlari yaratilishiga yo'l ochadi. Bahodir Yo'ldoshev nomidagi mukofot ham teatr san'atiga ixtisoslashayotgan iqtidorli, kreativ fikrlaydigan yosh rejissyorlarning sohaga qiziqishi va rag'batini kuchaytirib, sog'lom ijodiy raqobat muhitini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Mahoratli yozuvchi va dramaturglar, rejissyor va kompozitorlar, sahna rassomlari va boshqa ijodkorlar o'rtasida o'ziga xos ijodiy mulokat muhitini yaratish hamda ularning professional malakasini oshirish zarurati mavjud. Shu bois, qarorda rejissyor — dramaturg — kompozitor — rassom hamkorligini nazarda tutuvchi "Nigoh" ijodiy loyihasini yo'lga qo'yish belgilangan. Bundan buyon har yili mazkur loyiha asosida yaratilgan eng yaxshi 5 ta pyesa mamlakatimiz teatrlarida sahnalashtirib boriladi.

Qarorda madaniyat va san'at sohasining ta'lim tizimi bilan hamkorligini kuchaytirish, teatrlarda talabalarining amaliy mashg'ulotlarini kengaytirish, teatr sohasi o'ldirilmagan ishlariga buyurtmalar berish tizimini takomillashtirish masalalariga ham alohida e'tibor

qaratilgan. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz teatrlariga malakali kadrlar yetkazib beruvchi asosiy dargoh hisoblangan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti uchun ham ulkan imkoniyatlar yaratadi.

Eng avvalo, ta'limni amaliyot bilan yanada mustahkamroq bog'lashga sharoit qilinmoqda. Shu maqsadda talabalarining haftada kamida 2 kun teatrlarda amaliy mashg'ulot o'tkazishi yo'lga qo'yiladi. Bu yangilik teatrlarga sohani yetarli darajada tushunadigan, "sahnaning changini yutgan" tayyor kadrlarni yetkazib berishimizga yo'l ochadi.

Prezidentimiz qarori asosida har yili teatr san'atiga oid 5 ta ilmiy tadqiqot ishiga buyurtmalar berishning yo'lga qo'yilishi esa yosh tadqiqotchilarning sohaga qiziqishi yanada oshishiga sabab bo'ladi. O'z-o'zidan ilmiy tadqiqotlarning natijadorligi ham yuksaladi.

Albatta, bunday buyurtmalarni berishda mavzuning dolzarbligi hamda soha rivojiga qay darajada xizmat qilishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Shu orqali hududlardagi teatrlarning tarixini ham keng o'rganish, muammo va yutuqlarini ilmiy asosda tadqiq qilish imkoniyati kengayadi.

Teatr sohasi taniqli aktyor va rejissyorlar, san'atshunoslarning mahorat maktablari tashkil etilishi amalda katta samara berishi tayin. Qarorda teatr tanqidchilari va dramaturglar klubini tashkil etish vazifasi ham belgilandi. Ijodkorlar uchun o'zaro fikr almashish maydoni bo'lib xizmat qiladigan va yangilik ular o'rtasida g'oyaviy yakdillik shakllanishiga zamin yaratadi.

Nodavlat teatrlarga ham davlat buyurtmasi berish tizimi yo'lga qo'yilayotgani, shubhasiz, ularning yanada rivojlanishi, ijodiy jamoalar o'rtasida raqobat muhiti shakllanishiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida havaskor teatr jamoalari tuzilib, ular o'rtasida ijodiy tanlovlar o'tkazib boriladi. Bu esa institutimizda tahsil olayotgan talabalar hamda bitiruvchilar uchun qo'shimcha ish o'rnini va tajriba maydoni yaratilishiga yo'l ochadi. Har yili bitiruvchilarning eng yaxshi 10 ta bitiruv malakaviy ishiga davlat buyurtmasi berilishi esa yosh ijodkorlarning qaynoq ijod maydoniga yo'llanma olishida o'ziga xos ko'rik vazifasini o'taydi.



Yoshlarning teatrlarga doimiy tashriflarini nazarda tutuvchi "Teatr ibratxonadiri" dasturi ham amalda katta samara berishi tabiiy.

Kelgusi yildan O'zbekistondagi teatr jamoalarining milliy reytingini tuzish an'anasi joriy etiladi. Shu bilan birga, 2025-2028-yillarda joylardagi 11 ta teatr binosi mukammal ta'mirlanib, zamonaviy texnologiyalar asosida modernizatsiya qilinadi.

Yurtimizda musiqali teatr san'ati shakllanishi va rivojlanishida Muqimiy nomidagi musiqali teatr muhim o'ringa ega. O'z davrida ushbu san'at maskanida To'xtasin Jalilov, Yunus Rajabiy, Lutfoxonim Sarimsoqova, Razzoq Hamroyev, Soyib Xo'jayev, Mahmudjon G'ofurov, E'tibor Jalilova, Hamza Umarov, Farog'at Rahmatova kabi el ardog'iga sazovor bo'lgan san'atkorlar ijod qilgan. Muqimiy teatri hozirgi paytda ham barcha musiqali teatrlar uchun ijodiy laboratoriya vazifasini bajarmoqda. Ko'p yillik shonli an'analarga ega mazkur teatrga akademik maqomi berilgani yurtimiz madaniy hayotida muhim voqea bo'ldi.

Endi madaniyat va san'at sohasi xodimlari moddiy manfaatdorligi ularning ish samaradorligi ko'rsatkichlariga asoslangan holda belgilanadi. Bunda aholiga madaniy xizmat ko'rsatish, ayniqsa, olis hududlarga gastrollar uyushtirish, yangi asarlar yaratish, iqtidorli yosh ijodkorlarni izlab topish kabi mezonlarga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Boshqacha aytganda, soha xodimlari qanchalik xalqqa yaqin bo'lsa, olis hududlarda yashaydigan aholiga sifati madaniy xizmat ko'rsatsa, bundan o'zi ham manfaatdor bo'ladi.

Ushbu tajriba natijasida, bir tomondan, olis hududlarda yashayotgan yurtidoshlarimiz teatrlarda sahnalashtirilgan spektakllarni tomosha qilib, ma'naviy zavq olsa, uni tashkil etgan ijodkorlar ham mehnatiga yarasha moddiy rag'bat ko'radi.

Hech shubhasiz, mazkur qaror O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti faoliyatini tashkil qilishda o'ziga xos dasturlamal bo'lib xizmat qiladi. Ayni vaqtda institut faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, san'at va madaniyat yo'nalishlarida salohiyatli ijodkor kadrlar yetishtirish bo'yicha qator muhim vazifalar belgilab olingan.

Kelgusida ushbu yo'nalishda yetakchi xorijiy ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali har yili professor-o'qituvchilarimizning 10-15 foizini chet mamlakatlarga stajirovka o'tash va malaka oshirishga yuborish rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari, iqtidorli yoshlarni izlab topish va rag'batlantirish hamda ularni jahon sahnalariga olib chiqish, ijrochilik mahoratlarini yanada oshirish uchun har ikki yilda bir marotaba talabalar o'rtasida xalqaro teatr, musiqa, raqs va folklor san'ati tanlovlarini o'tkazib borish ko'zda tutilgan.

2025-yil O'zbekistonda "Atrof-muhiti asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Ushbu mavzularda yuqori saviyali, ta'sirchan san'at asarlari yaratish orqali masalaning ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga kengroq yetkazishimiz zarur. Shu bois, biz institut o'quv teatrida talabalar ishtirokida ekologik muammolarning hayotimizga ta'siriga bog'liqlangan yangi sahna asari yaratishga kirishdik. Bundan buyon barcha mashg'ulot va mahorat saboqlarida yurtimiz tabiatini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, borliq bilan uyg'un yashashning ahamiyatini talabalar ongiga chuqur singdirishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Bugun yurtimizda kechayotgan jadal islohotlar jarayonida madaniyat va san'at muassasalariga talab kuchaymoqda. Aniqrog'i, hozir davrimizning shiddatli nafasini, yurtimizdagi tarixiy o'zgarishlarni hayotiy voqealar orqali ta'sirchan aks ettiradigan yuqori saviyali, tomoshabop sahna asarlariga ehtiyoj har qachongidan yuqori. Bu esa har birimizdan zimmasizlik uchun mas'uliyat va javobgarlikni chuqur his etib, bor kuch va salohiyatimizni ishga solgan holda astoydil mehnat qilishimizni taqozo etadi.

Bir so'z bilan aytganda, yangi O'zbekistonda san'at va madaniyat sohalariga ulkan e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bizning ikkita o'q tomirimiz, ikkita tayanch ustunimiz bor: biri — iqtisodiyot, biri — ma'naviyatdir. Ma'naviy buyuk xalq — iqtisodiy tomondan ham buyuk bo'ladi".



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz

Har qanday millat va mamlakatning ertangi taqdiri, kelajakda ne mavqe, qanday manzilda bo'lishi farzandlariga bugun ko'rsatadigan e'tibori hamda g'amxo'rlikiga chambarchas bog'liq. O'tgan asr boshlarida jadid allomalarini eng ko'p tashvishlantirgan, bezovta va bedor qilgan masala ham aynan shu edi — kelgusi avlodlar ta'limiy tarbiyasi!

HUQUQ VA BURCHLAR

qomusi



Rahmon QO'CHQOROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi, filologiya fanlari nomzodi

Muammoning chinakamiga hayot-mamot masalasi ekanini teran his qiladigan xalqimiz shu tufayli ham o'zining Bosh qonuni — Konstitutsiyasining alohida bobini oila, bolalar va yoshlar taqdiriga oid me'yorlarga bag'ishlagan. Bu O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining XIV bobidir.

Xususan, asosiy qonunning 77-moddasi birinchi xatboshida o'qiyimiz: "Ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi".

Yurtimizda bu jabhada boshqa ko'plab mamlakatlarga ibrat bo'larli ishlar tizimlari yo'lga qo'yilgan. Iqtisodiy jihatdan ancha baquvvat, yalpi ichki mahsuloti hajmi bo'yicha dunyo ro'yxatlarida juda yuqori o'rinlarda qayd etiladigan uncha-muncha yirik davlatlarda ham hali-hamon



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Birgina jumladan mujassam vazifalar, majburiyatlar ko'lami, zalvori, mas'uliyatiga e'tibor qarataylik. Ularning qanchalik bir-biriga o'zaro bog'liqligi, uzviyligi, ulkuzsizligiga diqqat qilaylik.

Xususan, dono xalq "Bo'sh qop tik turmaydi", deydi. Demak, farzandning ta'lim-tarbiyasi to'laqonli o'zlashtirishi, sog'lom voyaga yetishi, har tomonlama kamol topishi uning har kuni nima yeb, nima ichayotgani, jismlari oziqlanayotgan yemaklarning darmondorligiga, miya va tanani samarali oziqlantiruvchi foydali elementlarga qanchalik boyligiga ko'p jihatdan bog'liq.

Dunyo bozori singari bizning bozorlarimizni ham ming bir turlu, ko'pi har xil kimyoviy va biologik qo'shimchalar, eng injenerligining "ilg'or yutuqlari" bilan "boyitilgan" mahsulotlar to'ldirgan bir sharoitda bolalarimizni ishonchli oziq-ovqat bilan voyaga yetkazish aytishgagina oson.

Binobarin, konstitutsiyaviy majburiyat matnida farzandlarni "har tomonlama kamol topirish" xususida so'z bo'moqda. Shunday ekan, keling, o'zimizga bunday savol berib ko'raylik: bugun ota-onam degan hamma ham ayni majburiyat ijrosiga tayyor, layoqatli, uquvli deya olamizmi? Ayrimlarning benhoya kalta — burnidan nariyoqni o'ylamay qilayotgan harakati tufayli yoshlarning hali voyaga yetib-yetmayotgani turmush qurishi ne-ne oqibatlarini keltirib chiqarayotganini ko'rib-bilib turibmiz-ku! O'zginagina shamollab qolgan bolasiga birinchi tibbiy

yechimi topilmagani tufayli yuz minglab qarovsiz bola sarson-sargardon yurgan bir paytda bolajon O'zbekistonda biror norasida ko'chaga tashlab qo'yilganini birov ko'rgan yo'q.

Taqdir izmiga ko'ra ota-onasidan ayrilgan har qanday bolaga millati, dini, nasl-u nasabidan qat'i nazar, e'tibor qo'lini cho'zadigan davlat va nodavlat tashkilotlar bolaning to'q, sog'lom voyaga yetishi, ta'lim-tarbiya olishi, keyingi taqdirini mustaqil boshqara bilishi uchun nimaiki kerak bo'lsa, barchasini qilish uchun tunu kun harakatda. Bu jihatdan aholining ijtimoiy himoyaga muhoj qatlamiga ko'maklashish, sog'liqni saqlash va ta'limni rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab xayriya loyihalarini amalga oshirayotgan "Zamin" xalqaro jamoat fondi, Oliy Majlisning Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani), barcha hududlarda faoliyat yuritayotgan Mehribonlik uylarining savobli sa'y-harakati ibratga loyiq.

Bularga qo'shimcha tarzda O'zbekiston Respublikasining mazkur jabhadagi konstitutsiyaviy normalarni hayotga to'la ta'biq etishga yo'naltirilgan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi hamda yaqinda qabul qilingan "Bolalarni zo'rovonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar o'sib kelayotgan farzandlarimizning har jihatdan havassga loyiq inson bo'lib shakllanishida mustahkam huquqiy zamin bo'lib xizmat qiladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4314. 39932 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhir: Nasiba Abdullayeva
Dizaynerlar: Xurshid Abdullayev,
Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 21:10 Topshirildi — 22:15

Qabulxonasi: (71) 233-56-33 Devonxonasi va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayti: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefon: (78) 129-29-29